

KONSTETUTSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI

Jizzax viloyat, Jizzax shaxar 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Rus tili fani o'qituvchisi 7-"A"sinf raxbari

Normatova Gulchexra Raxmatovna

Har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori

uning Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Zotan Konstitutsiya davlatni davlat,

millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov

Annotatsiya: *Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlaboq inson huquqi, uning qadr-qimmatini birinchi darajali masala sifatida ko'tarilib, barcha huquqiy asoslar yaratildi va yaratilmoqda. Istiqlol bois, xalqimiz o'z hayoti va turmush tarzini milliy manfaat va qadriyatlar asosida, shuningdek, xalqaro hamjamiyat e'tirof etgan demokratik mezonlarga uyg'un ravishda bunyod etmoqda.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, milliy manfaat va qadriyatlar, istiqlol, mustaqillik belgisi, baxtimiz qomusi.*

Mamlakatimizda inson huquqlarini xalqaro andozolar asosida ta'minlash va muhofaza qilishga qaratilgan chora tadbirlarning amalga oshirilayotganligi tahsinga sazovordir. O'zbek xalqi tarixida ham keskin burilish yasagan, istiqlol uchun kurashlar samarasi bo'lgan, ahamiyati jihatidan asrlarga tatigulik huquqiy hujjatlar "Mustaqillik deklaratsiyasi", "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qaror, "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun va albatta, Asosiy qonunimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinishini alohida ta'kidlash lozim. Mustaqil davlatchilikning belgisi hisoblanmish Konstitutsiya avvalo millatning yuzi, xalqning erki ifodasi, jamiyat

taraqqiyotining asosidir. Tom ma'noda yangi demokratik tuzumni barpo etish maqsadida qabul qilingan Konstitutsiyamizning g'oyasi, asosiy prinsip va qoidalari umume'tirof etilgan xalqaro talablar bilan birga xalqimizning ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o'zida mujassam etgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima, "Asosiy prinsiplar", "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari", "Jamiyat va shaxs", "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi", "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi", "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi" deb nomlangan 6 ta bo'lim, 26 ta bobni tashkil etgan 128 moddani o'z ichiga oladi. Xalqimiz Konstitutsiyamizni qabul qilinishi orqali dunyo hamjamiyatiga o'zining umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini namoyon qildi. Ushbu umuminsoniy qadriyatlarning diqqat markazida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlarini ta'minlash davlatimiz oldidagi oliy mas'uliyat ekanligi Konstitutsiyamizning asosiy g'oyasi sifatida tanlab olindi. Konstitutsiyamizning barcha tamoyillari, avvalo, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, davlatning majburiyati ushbu huquq va erkinliklarni ta'minlashda aks etadi. Shu bilan birgalikda xalq hokimiyatchiligi institutining mazmunida butun hokimiyat va suverenitet xalqqa tegishli ekanligi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi, deb e'tirof etilgani, konstitutsiyamizning xalqchil tabiatini namoyon etadi. O'zbek xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolari tashkil etadi (8-modda) deb e'tirof etilishi, fuqarolarning millatidan, irqi, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengligi, huquq va erkinliklar barcha uchun bir xilda, teng sharoitlarda ta'minlanishi jamiyat barqarorligi va osoyishtaligining garovi bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat a'zolarining manfaatlarini teng himoya qilinishi barobarida davlat o'zining kuchli ijtimoiy siyosatini amalga oshiryapti. Milliy qadriyatlarimizni o'ziga singdirgan Konstitutsiyamiz asosida oila, onalik va bolalik davlat muhofazasida ekanligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalar vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni o'z zimmasiga olganligini alohida e'tirof qilish lozim. O'z farzandlarini voyaga yetkazish otaonaning oldidagi burch, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar esa ota-onalari

xaqida g'amxo'rlik qilishga burchli ekanligi aytilgan qoidalar xalqimizning azaliy urf-odatlarini, an'analari oilaning muqaddasligiga tayanishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahalla institutining konstitutsiyada mustahkamlanishi xalqimizning yanada jipslashuvi, kishilarning kundalik hayotini yo'lga qo'yishida muhim vosita ekanligida namoyon bo'ladi.

Fuqarolar Konstitutsiyaning xar bir qoidasini hamda u asosida qabul qilingan qonun hujjatlarini bilishi, anglashi va hayotga to'g'ri tatbiq qilishi muhimdir. Konstitutsiya mazmun-mohiyatini bilmaslik esa huquqiy savodxonlikning yetarli emasligidan dalolat beradi. Bu holatni konstitutsiyaviy kafolatlarga jiddiy xavf, deb baholash lozim. Insoniyat taraqqiyotining tarixiy yo'li ana shundan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida, Demak, Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun hayotiy dasturilamal, iftixor manbayi, huquqiy qurol, hamda ishonchli qalqon bo'lib xizmat qilishi zarur.

Adabiyotlar

1. Нажимов М.К. Норма иждокорлиги. Дарслик. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – Б.81.

2.<https://uza.uz>

3.Lex.uz